

UDK:336.201

Hujamuradov Abrorbek Ro‘zimurat o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi

Toshkent davlat iqtisodiyot

universiteti

“Soliq va soliqqa tortish” kafedrası

mustaqil izlanuvchisi (PhD)

SOLIQ MA’MURCHILIGIDA ZAMONAVIY MEXANIZMLARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda soliq tizimini isloh qilish yo‘nalishlari, soliq ma’murchiligida barqarorlik reytingi joriy qilinishi ushbu reyting samaradorligi va istiqbollar hamda zamonaviy mexanizmlarning joriy qilinishiga alohida e‘tibor qaratilgan. Bundan tashqari ma‘qolada barqarorlik reytingi joriy qilish orqali soliq to‘lovchilarni rag‘batlantirishni soddalashtirish va shu bilan birgalikda soliq ma’murchiligini isloh qilishda xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari o‘rganildi. Soliq ma’murchiligini tashkil etish mexanizmini takomillashtirish hamda sohaga zamonaviy mexanizmlarni qo‘llash bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: Soliq ma’murchiligi, Soliq xavfini boshqarish, soliq to‘lovchilarning barqarorlik reytingi, soliq auditi, kameral soliq tekshiruvi.

Annotation: The article focuses on the directions of tax system reforms in our country, the introduction of a stability rating in tax administration, the effectiveness and prospects of this rating, as well as particular attention to the implementation of modern mechanisms. Additionally, the article studies the scientific and theoretical views of foreign and local scholars regarding the simplification of encouraging taxpayers through the introduction of the stability rating and, consequently, the reform of tax administration. Scientific proposals and practical recommendations have been developed to improve the mechanism of organizing tax administration and to apply modern mechanisms in the field.

Keywords: Tax administration, Tax risk management, Taxpayers' stability rating, Tax audit, Desk tax inspection.

KIRISH

Respublikamizda soliq tizimini takomillashtirish, soliq munosabatlari samaradorligini oshirish, shuningdek, soliq to‘lovchilarning huquq va manfaatlarini har tomonlama himoya qilish hamda soliq qonunchiligiga rioya qilmagan soliq to‘lovchilarga nisbatan tushuntirishlar olib borish borasida ko‘plab ijobiy ahamiyatga ega tadbirlar oshirib kelinmoqda. Yurtimiz iqtisodiyoti rivojlanib borgan sari soliq sohasida ham yangi zamonaviy xizmat turlari yaratilyapti, bunday xizmatlar jumlasiga kiradigan soliq ma’murchiligi mamlakatimizdagi zamonaviy soliq tizimining yanada rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Bugungi kunda soliq ma’murchiligini takomillashtirish hamda soliq to‘lovchilar uchun oson, qulay va tushunarli tizim yaratish soliqlar undiruviga asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Soliq ma’murchiligi nafaqat davlat g‘aznasini to‘ldirish uchun balki soliq to‘lovchilar orasida teng raqobat yaratish va rivojlanmay qolayotgan tadbirkorlik sohalarni rivojlantirish hamda insofli soliq to‘lovchilarni qo‘llab quvvatlash uchun ham davlatning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

So‘ngi yillarda soliq tizimini isloh qilish va tubdan takomillashtirish yuzasidan ko‘plab qonun va qonun osti hujjatlari ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilindi. Ushbu amalga oshirilgan o‘zgarishlar natijasida tadbirkorlik subyektlari uchun qulay soliq ma’murchiligi yaratilib yildan

yilga tadbirkorlik sub'ektlari soni kengaymoqda. Albatta bu soliq siyosatining asosiy vazifasidan biri bo'lgan davlat g'aznasini to'ldirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Soliq ma'murchiligida zamonaviy mexanizmlarini o'rganishda analiz, sintez, induksiya va deduksiya, qiyoslash usullari qo'llanildi. Xorijiy va mahalliy ilmiy-nazariy manbalar o'rganilib, ma'lumotlarning analitik tadqiqot usullari yordamida tegishli xulosa va takliflar shakllantirildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Xalqaro valyuta fondi mutaxassislari Silvani va Baerlarning (1997) bu yuzasidan: «soliq ma'murchiligi strategiyasi – uzoq muddatli soliq ma'murchiligi operatsiyalarining unumdorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar sifatida baholanib, mamlakatda soliq uzilishi (to'lanishi lozim bo'lgan va kelib tushgan tushumlar o'rtasidagi farq) hajmi va uni kamaytirish uchun qo'llaniladigan choralar keskinligi asosida tayyorlanishi kerak» deb fikr bildirganlar[1].

Pogorleskiy va Keshnerlarni (2020) bayon etishlaricha: «Soliq ma'muriyatchiligiga raqamlashtirish va yangi axborot texnologiyalarni kiritib borish soliq organlarida ish yuklamasini kamaytirishga hamda soliq turlari, sug'urta badallari bo'yicha qarzlarni kamaytirishga olib kelishi shart» deb keltirib o'tgan[2].

Bassey va boshqalar (2022) fikricha, bugungi kunda butun dunyo bo'ylab soliq to'lovchilar malakasini oshirish uchun soliq ma'murchiligi turli xildagi va murakkab elektron xizmatlar bilan yuqori darajada raqamlashtirilgan.

Biroq bunga qaramay, raqamli soliq tizimining muvaffaqiyati uchun muhim bo'lgan omillarni tushunish juda muhimligi yuzasidan o'z fikrini bildirgan[3].

Mashhur iqtisodchi olim M.Mishustin (2019) tomonidan aytib o'tilgan fikrlarga ko'ra, soliq ma'murchiligi to'liq raqamlashtirishdan so'ng soliq "moslashuvchan platforma" yaratiladi, u faqat raqamli ma'lumotlar manbalari va soliq to'lovchilarning raqamli identifikasiya-torlari bilan ishlaydi, real vaqt rejimida va o'rnatilgan soliq qonunchiligiga rioya qiladi deb ta'kidlagan.

Shuningdek Soliq xizmati rahbari soliq to'lovchilar bilan ishlashning "kontaktsiz" texnologiyalari kelajakdagi soliq ma'muriyatining asosi ekanligini ta'kidladi: "Soliq organlarini ijtimoiy tarmoqlar, mashhur raqamli xizmatlar va boshqa onlayn rejimlarga ulangan raqamli platformalarga aylantirish. platformalar soliq ma'muriyatchiligini rivojlantirishning navbatdagi bosqichi ekanligi ta'kidlangan[4].

Klyuchisheva va Klyuchishevlar fikricha (2016) korxonalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish va ularning innovatsion faoliyatini soliqlar vositasida samarali tartibga solishning eng muhim va bosh mexanizmi soliq imtiyozlari hisoblanadi. Samarali soliq mexanizmini baholashning asosiy mezon sifatida ayrim soliq to'lovchilarning cheklangan real daromad manbalarini hisobga olgan holda, ular tomonidan soliq yukini ko'tarishning ob'ektiv qobiliyatidir. Samarali soliq mexanizmiga erishish mintaqaning o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy ahamiyatini hisobga olgan holda, soliq siyosatining fiskal yo'nalishini cheklaydigan majburiy qo'shimcha shartlarni joriy etish bilan ta'minlanadi[5].

Tahlillar va natijalar:

Respublikamizda soliq ma'murchiligini takomillashtirish borasidagi ishlar mustaqillik davridan boshlangan bo'lsa ayniqsa so'ng yillarda Soliq kodeksiga o'zgartirishlar kiritilishi munosabati bilan soliq ma'murchiligi tubdan takomillashtirilib ushbu tizimda yangi bosqich boshlandi deb bimalol aytish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-son qaroriga asosan tadbirkorlik sub'ektlari aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarlikni tan olib, davlat soliq xizmati organlarining soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortish to'g'risidagi qarorini olgan kundan e'tiboran o'n kun muddat ichida moliyaviy jarimalarni ixtiyoriy ravishda to'lasa, tadbirkorlik sub'ektlarining mansabdor shaxslari yoki xodimlari yoxud

tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolar mazkur huquqbuzarlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan jinoiy va ma'muriy javobgarlikdan ozod etilishi belgilab qo'yildi [6].

Shuningdek ushbu qarorga asosan 2020 yil 1 yanvardan boshlab:

qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tadigan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar davlat soliq xizmati organlarida ushbu soliqning to'lovchisi sifatida majburiy hisobga olinadi va bu qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisobga olishning sharti hisoblanadi;

qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tishda ushbu soliq summasi qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tilgan sanadan avvalgi oxirgi 12 oyda xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarning tasdiqlangan qoldiqlari bo'yicha realizatsiya hajmiga mos keladigan ulushda hisobga olinadi;

qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tish yoki yagona soliq to'lovini to'lashni rad etish to'g'risidagi xabarnoma qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tiladigan oy boshlanishidan oldin o'n ish kunidan kechiktirmasdan taqdim etiladi.

Bundan tashqari ushbu qaror bilan Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi va Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha «yo'l xaritasi» belgilangan.

Strategiyaning asosiy maqsadi iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili sifatida tadbirkorlik sub'ektlari va investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, soliq solish jarayonlarini avtomatlashtirgan holda, davlat soliq organlarida zamonaviy yo'naltirilgan servis soliq xizmatlari ko'rsatishni tashkil qilish hisoblanadi.

Ushbu belgilangan strategiyaning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilab olingan:

- *Soliq siyosatini takomillashtirish va iqtisodiyotda xufiyona aylanma darajasini qisqartirish;*

- *Xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan soliq xizmatlarini rivojlantirish;*

- *Soliq tavakkalchiliklarini baholash tizimini joriy qilish va soliq hisobini takomillashtirish;*

- *Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish;*

- *Davlat soliq xizmati organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini rivojlantirish.*

Ushbu yo'nalishlarning asosiylaridan biri bu shubhasiz Soliq tavakkalchiliklarini baholash tizimini joriy qilish va soliq hisobini takomillashtirishdir. Sababi soliq to'lovchilarning xavf darajasini baholash va ularda tekshiruvlarni o'tkazish uchun inson omili aralashuvini keskin kamaytirish orqali nafaqat tekshiruvga tushadigan nomzod korxonalar haqqoniyligini ta'minlash balki korrupsiyaviy holatlarga barham berish uchun ham zarur va davr talab hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5490-son Farmonida mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining to'sqinliksiz amalga oshirilishini ta'minlash, biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va respublikaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar olib borilayotganligi ta'kidlangan [7].

Shu bilan birga, tadbirkorlik faoliyati sohasida bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda, ularning hal etilishi biznesni rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish, mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarining kafolatli himoyasini ta'minlash imkonini berishi ta'kidlangan.

Ushbu Farmonga asosan quyidagilar keltirib o'tilgan:

nazorat qiluvchi organlar va insofli tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida ishonchli hamkorlikni o'rnatishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining qabul qilinganligi amaldagi tekshiruvlar tizimini, davlat nazoratining boshqa turlarini, shuningdek, soliq va boshqa majburiy to'lovlarni undirish tartibini tubdan qayta ko'rib chiqish;

qonun hujjatlarida zamon talablariga javob bermaydigan ayrim huquqiy mexanizmlarning mavjudligi sababli soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, penyalari va moliyaviy jarimalar bo'yicha qarzdorliklar sun'iy yo'l bilan yig'ilib borilayotganligi;

tadbirkorlik sub'ektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini buzilishiga olib kelayotgan davlat organlarining samarasiz va ortiqcha nazorat funksiyalari amal qilayotganligi;

tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida o'tkaziladigan tekshiruvlarning tashkiliy jihatlari va tartib-taomillarini kompleks tartibga solish hamda ularning qonuniyligi monitoringini olib borishning yagona yaxlit tizimi mavjud emasligi nazorat qiluvchi organlar faoliyatining shaffofligini ta'minlash va o'tkaziladigan tekshiruvlarning asoslilikini xolis baholash imkonini bermayotganligi;

o'tkaziladigan tekshiruvlarning ochiqqligi, oshkoraligi va xolisligini ta'minlovchi nazorat qiluvchi organlar faoliyati ustidan mustaqil jamoatchilik nazorati tizimi joriy etilmaganligi ta'kidlangan.

Ushbu Farmonning 5-bandiga asosan 2018-yil 1-sentabrdan boshlab Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirish tashabbusi bilan chiqish tegishli tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan qonunbuzarlik sodir etish xavfi darajasidan kelib chiqib, tekshiruvni tashabbus qilishni nazarda tutuvchi «xavfni tahlil etish» tizimi natijalari asosida amalga oshirilishi belgilangan.

Shuningdek ushbu yo'nalishdagi amaliy ishlarning uzviy davomiga to'xtaladigan bo'lsak O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi 1-son qarori 1-ilovasiga asosan "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va ularni soliq xavfi darajasi bo'yicha toifalash tartibi to'g'risida"gi nizomi tasdiqlangan[8].

Shuningdek soliq xavfi quyidagi manbalardan olingan ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi:

soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan soliq va moliyaviy hisobotlar, shuningdek, soliq to'lovchilarning shaxsiy kartochkalarida aks ettirilgan ma'lumotlar;

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (keyingi o'rinlarda — Soliq kodeksi), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida» 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6098-son Farmoni hamda «O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikatsiya tizimi faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2012-yil 30-oktabrdagi PQ-1843-son qaroriga asosan davlat organlari, muassasalar va tashkilotlar tomonidan soliq organlariga taqdim etilgan ma'lumotlar;

xorijiy mamlakatlarning vakolatli organlari tomonidan o'zaro axborot almashish borasida tuzilgan bitimlar doirasida taqdim etilgan ma'lumotlar;

ommaviy axborot vositalaridan olingan ma'lumotlar;

o'tkazilgan soliq tekshiruvlari materiallaridagi ma'lumotlar;

sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan soliqqa oid huquqbuzarliklar bo'yicha aniqlangan ma'lumotlar (hukm, qaror, ajrim, hal qiluv qarori va boshqa hujjatlar);

soliqqa oid huquqbuzarlik faktlari to'g'risida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari;

statistika organlaridan olingan ma'lumotlar;

majburiy raqamli markirovkalash qoidalarini buzish holatlari yuzasidan olingan ma'lumotlar;

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar.

Soliq to'lovchilar soliq xavfi darajasiga qarab past, o'rta va yuqori xavfli toifalarga ajratiladi.

Ushbu nizom talablariga ko'ra Soliq xavfi darajasi mezonlari maxfiy axborot hisoblanishi biroq quyidagi mezonlar ochiqqligi keltirilgan bular:

soliq yuki;

ilgari taqdim etilgan soliq hisobotlariga bir necha bor (bir hisobot davri uchun uch va undan ortiq marta) o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi;

soliq hisobotida bir necha soliq davridagi (ikki va undan ortiq) zararlar aks ettirilishi;
soliq davri davomida soliq to'lovchining joylashgan joyi bir necha bor (ikki va undan ortiq marta) o'zgartirilishi va keyinchalik qayta ro'yxatdan o'tkazilishi;

qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha guvohnomasi bekor qilingan (ro'yxatdan chiqarilib tashlangan), shuningdek, tugatilgan, faoliyatini amalga oshirmayotgan, bankrot deb topilgan shaxslar bilan amalga oshirilgan bitimlar (operatsiyalar);

sof foydaning xarajatlarga nisbati sifatida aniqlanadigan rentabellik ko'rsatkichi past darajada bo'lishi;

soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq hisobotidagi operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarning, ushbu operatsiyalar bo'yicha boshqa soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotidagi ma'lumotlarga mos kelmasligi;

Soliq kodeksiga asosan maxsus soliq rejimlarini qo'llash huquqini beradigan oborotlarini bir necha yil davomida bir milliard so'mdan past miqdorda soliq hisobotlarini taqdim etishi;

o'tkazilgan soliq tekshiruvlari natijalari.

O'tgan 2024-yilda "Soliq xavfini boshqarish" tizim orqali soliq xavfi o'rta baholangan 31 938 ta soliq to'lovchilarda soliq kameral soliq tekshiruvlar o'tkazilgan bo'lib ushbu tekshiruvlar natijasida 15 407,4 mlrd.so'm soliqlar hisoblanmasdan qolganligi yuzasidan kamchiliklar aniqlanib soliq to'lovchiga soliq organlari tomonidan belgilangan tartibda talabnomalar yuborilishi ta'minlangan.

Shuningdek 2024-yil davomida "Soliq xavfini boshqarish" tizim orqali soliq xavfi yuqori va o'ta yuqori baholangan 2 146 ta soliq to'lovchilarda soliq auditi o'tkazilgan bo'lib ushbu tekshiruv tadbirlari natijasida soliq to'lovchilar tomonidan to'lanmasdan qolgan 6 217,2 mlrd.so'mlik soliqlar aniqlangan.

Soliq to'lovchilarni qonunchilik normalariga rioya qilishi nafaqat soliq tekshiruvlarini amalga oshirish orqali balki soliq to'lovchilarning insofli soliq to'lovchiligi va soliqlardan qochish alomatlari yo'qligiga qarab ularni rag'batlantirish tizimini joriy etish orqali ham budjetga soliq undiruvchanligini samaradorligi oshishiga erishish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-yanvardagi "Tadbirkorlik sub'ektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-39-son qaroriga asosan soliqlarni o'z vaqtida to'lab, qonunchilik talablariga amal qilgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'ektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish va ularni rag'batlantirish maqsadida 2024 yil 1 fevraldan boshlab qonunchilik talablariga rioya etgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'ektlarini aniqlash va qo'shimcha rag'batlantirishni nazarda tutuvchi Tadbirkorlik sub'ektlarining barqarorlik joriy etish belgilangan.

Qarorga muvofiq tadbirkorlik sub'ektlari quyidagi toifalarga ajratilgan:

«AAA», «AA» va «A» toifalar — yuqori barqarorlik reytingi;

«VVV», «VV» va «V» toifalar — o'rta barqarorlik reytingi;

«SSS», «SS» va «S» toifalar — qoniqarli barqarorlik reytingi;

«D» toifa — quyi barqarorlik reytingi;

Ushbu qarorga asosan Yuqori barqarorlik reytingidagi tadbirkorlik sub'ektlari uchun quyidagi rag'batlantirish choralari joriy etilsin:

a) «AAA» toifadagi tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida soliq tekshiruvlari o'tkazilmaydi (jinoiy ishlar doirasida o'tkaziladigan tekshiruvlar bundan mustasno), shuningdek, ushbu toifadagi tadbirkorlik sub'ektlariga qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rnini qoplash (qaytarish) bir kun muddatda tekshiruvlarsiz amalga oshiriladi;

b) 4 va 5-toifadagi tumanlarda faoliyat yuritayotgan «AA» va undan yuqori toifadagi tadbirkorlik sub'ektlariga bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotilgan davlat aktivlari bo'yicha dastlabki to'lov summasi 35 foizdan kam bo'lgan hollarda qolgan summaga Markaziy bankning asosiy stavkasi miqdorida yillik foizlar hisoblanmaydi hamda bo'lib-bo'lib to'lash muddati miqdoridan qat'iy nazar, 7 yil (teng ulushlarda) etib belgilanadi;

v) «A» va undan yuqori toifadagi tadbirkorlik sub'ektlariga soliqlar bo'yicha (qo'shilgan qiymat solig'i bundan mustasno) mavjud ortiqcha to'lov summasini qaytarish uch kun muddatda amalga oshiriladi;

g) «BBB» va undan yuqori toifadagi tadbirkorlik sub'ektlariga tovarlarni import qilishda va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summalarini o'zaro hisobga olish tartibi tatbiq etiladi.

Barqarorlik reytingini joriy etishning asosiy maqsadlari:

Soliq to'lovchilarni saralash – ishonchli va noishonchli to'lovchilarni aniqlash.

Xatarli (xavfli) to'lovchilarni aniqlash – yolg'on soliq hisobotlari, firibgarlik yoki yuzagi chiqqan majburiyatlarni bajarmagan kompaniyalar.

Inspeksiya nazoratini samarali tashkil etish – kimni tekshirish kerakligini belgilashda foydalanish.

Subsidiya, tender va boshqa davlat ko'magida ishtirok etish huquqini baholash.

Barqarorlik reytingini shakllantirishda e'tibor beriladigan asosiy ko'rsatkichlar:

Soliqlarni o'z vaqtida to'lash (haqiqiy to'lov va kechikishlar).

Soliq hisobotlarini o'z vaqtida taqdim etish.

Qarz miqdori – davlat oldidagi qarzlar.

Xodimlar soni va ish haqi fondi.

Bankrotlik va tugatish jarayonlari mavjudligi.

Sud ishlarida ishtirok etishi.

Yuridik manzilda joylashganligi va faoliyat yuritish darajasi.

Iqtisodiy faoliyat turi (tarmoq xatarlari).

Barqarorlik reytingini qo'llanilishi:

Banklar — kredit berishda ishlatishi mumkin.

Hukumat organlari — subsidiyalar, tenderlar uchun saralashda.

Ishbilarmon sheriklar — ishonchli hamkor tanlashda.

1-jadval

2024-2025-yillarning mos davrlarida Barqarorlik reytingi baholangan korxonalar ko'rsatkichlari

Toifalar	2024-yil		2025-yil	
	Mart	Aprel	Mart	Aprel
	<i>korxonalar soni</i>	<i>korxonalar soni</i>	<i>korxonalar soni</i>	<i>korxonalar soni</i>
AAA	112	175	1 623	1 733
AA	589	955	3 707	3 742
A	954	1 488	4 586	4 840
BBB	5 767	8 514	16 376	17 230
BB	15 684	21 675	29 167	30 183
B	31 345	40 258	43 335	42 919
CCC	24 409	29 607	27 069	26 271
CC	105 482	112 672	115 427	115 427
C	108 683	104 893	93 616	95 265
D	270 097	242 322	194 430	195 253
Jami	563 122	562 559	529 336	532 863

Yuqorida keltirilgan jadvaldan ko'rinib turibdiki barqarorlik reytingi joriy qilingan dastlabki davrlarda ya'ni 2024-yil mart oyida jami 563 122 ta soliq to'lovchilarning reytingi baholangan bo'lib shundan **112 tasi** AAA toifaga mansub bo'lgan bo'lsa ushbu ko'rsatkich aprel oyiga kelib **175 tani** tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin 2025-yilning mos davrida ya'ni mart oyiga kelib AAA toifaga mansub bo'lgan soliq to'lovchilar soni 1 511 taga ko'payib **1 623 tani**

tashkil qilgan bo'lsa ushbu ko'rsatkich aprel oyiga kelib **1 733 tani** tashkil qilgan. Shuningdek AA va A toifadagi soliq to'lovchilar ham yildan yilga oshib borayotganligini jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkin.

2024-yilning mart oyida BBB toifaga mansub korxonalar soni 2024-yilning mart oyida 5 767 tani va aprel oyida 8 514 tani tashkil qilgan bo'lsa ushbu ko'rsatkich 2025-yilning mart oyiga kelib ikki barobardan ham ko'proqqa oshib 16 376 tani tashkil qilgan bo'lsa aprel oyida 17 230 tani tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo'lsak soliq to'lovchilarning reyting darajasi oshishi yildan yilga ko'payib borayotganligini ya'ni AAA va BBB bundan ko'rinib turibdiki soliq to'lovchilar ham o'z reyting darajasini oshirish va berilgan imkoniyatlardan maksimal foydalanish maqsadida soliq to'lovlarini yashirmasdan ishlashga intilishmoqda.

2-jadval

**2025-yil 30-aprel holatiga hududlar kesimida Barqarorlik reytingi baholangan
korxonalar ko'rsatkichlari**

Hudud nomi	Jami baholangan soliq to'lovchilar soni	Barqarorlik reytingi									
		AAA	AA	A	BBB	BB	B	CCC	CC	C	D
Jami	532 863	1 733	3 742	4 840	17 230	30 183	42 919	26 271	115 427	95 265	195 253
Hududlararo inspeksiyasi	878	49	27	45	127	148	148	63	134	102	35
Qoraqalpog'iston Resp.	26 972	108	177	220	759	1 444	2 053	1 272	6 269	4 968	9 702
Andijon viloyati	32 972	80	122	159	570	1 167	1 817	1 305	6 311	6 699	14 742
Buxoro viloyati	32 462	110	190	267	875	1 617	2 373	1 573	7 237	5 632	12 588
Jizzax viloyati	24 632	63	109	115	414	760	1 256	896	5 158	4 610	11 251
Qashqadaryo viloyati	42 222	67	169	189	836	1 648	2 455	1 683	8 715	8 514	17 946
Navoiy viloyati	22 194	38	81	106	421	853	1 491	910	4 190	4 354	9 750
Namangan viloyati	31 352	95	189	233	797	1 453	2 178	1 356	6 557	6 138	12 356
Samarqand viloyati	49 503	169	364	453	1 615	2 813	4 006	2 435	12 076	8 733	16 839
Surxondaryo viloyati	28 991	48	89	141	528	1 095	1 720	1 189	6 390	5 422	12 369
Sirdaryo viloyati	15 049	41	58	81	298	584	904	599	3 092	2 778	6 614
Toshkent viloyati	49 639	163	396	502	1 806	3 178	4 688	2 885	11 653	8 159	16 209
Farg'ona viloyati	46 760	132	248	311	1 146	1 998	3 245	2 014	10 604	8 679	18 383
Xorazm viloyati	29 257	88	203	222	893	1 654	2 560	1 631	6 792	4 681	10 533
Toshkent shahri	99 980	482	1 320	1 796	6 145	9 771	12 025	6 460	20 249	15 796	25 936

Keltirilgan jadvaldan ham ko'rishimiz mumkinki AAA, A, A toifadagi korxonalar soni 10 315 tani tashkil etib umumiy baholangan soliq to'lovchilar ulushning 1,9 foizini tashkil qilgan bo'lsa, BBB, BB, B toifadagi korxonalar soni 903 32 tani tashkil etib umumiy baholangan soliq to'lovchilar ulushning 16,9 foizini tashkil qilgan va CCC, CC, C toifadagi korxonalar soni 236 963 tani tashkil etib umumiy baholangan soliq to'lovchilar ulushning 44,4 foizini tashkil qilgan hamda D toifaga mansub korxonalar 195 253 tani tashkil qilib umumiy baholangan soliq to'lovchilar ulushning 36,6 foizini tashkil qilgan.

Barqarorlik reytingi bu soliq to'lovchi sub'ektning moliyaviy barqarorlik darajasini va ularning soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish qobiliyatini baholash uchun ishlatiladigan indikator hisoblanadi.

Soliq to'lovchining barqarorlik reytingi ko'rsatkichlari nafaqat davlat organlari uchun muhim hisoblanadi balki soliq to'lovchining hamkorlari oldida ham ushbu reytingi darajasiga

qarab soliq to'lovchi qay darajada ishonchli hamkor ekanligi to'g'risida dastlabki ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin.

Bundan tashqari barqarorlik reytingining quyidagi afzalliklari mavjud:

1. Ishonch va obro'ni oshiradi.

Barqarorlik reytingi yuqori bo'lgan soliq to'lovchilar biznes hamjamiyati va davlat organlari oldida ishonchli va mas'uliyatli tuzilma sifatida ko'riladi. Bu ularning obro'sini oshiradi.

2. Moliyaviy faoliyatni osonlashtiradi.

Yuqori reyting banklar va moliya tashkilotlaridan kredit olishda yordam beradi. Shuningdek, hamkorlar va investorlar bilan ishlashda ham ishonchni kuchaytiradi.

3. Nazorat va tekshiruvlardan ozodlik yoki yengilliklar beriladi.

Barqaror soliq to'lovchilar uchun davlat soliq organlari tomonidan nazorat va tekshiruvlar kamroq o'tkazilishi mumkin. Bu vaqt va resurslarni tejashga yordam beradi.

4. Qarzdorlik va moliyaviy xatarlarni kamaytiradi.

Reyting orqali o'z moliyaviy holatini kuzatib borish, ehtimoliy muammolarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyati paydo bo'ladi.

5. Soliq siyosatini yaxshiroq tushunish va muvofiqlashish.

Soliq to'lovchilar reytingini bilish orqali ular davlat soliq siyosatidagi o'zgarishlarga tezroq moslashishlari mumkin.

6. Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun motivatsiya.

Barqarorlik reytingini yaxshilash uchun soliq to'lovchilar o'z biznes jarayonlarini takomillashtirishga, soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarishga intilgan bo'ladi.

Respublikaning barcha hududlaridagi soliq to'lovchilar uchun teng imkoniyatlar yaratilganligini agarda soliq to'lovchi barqarorlik reytingi talablarida toifasi oshib borsa unda soliq tekshiruv o'tkazilmaslik va shu kabi boshqa imkoniyatlar berib borilishi sababli yildan yilga korxonalaridagi barqarorlik toifasi yaxshilanib bormoqda.

Xulosa:

Soliq ma'murchiligini mexanizmini to'g'ri tashkil etish uni zamon talablariga moslash albatta muhim hisoblanadi biroq shuni ham ta'kidlash joizki soliq ma'murchiligini yangi mexanizmlarini joriy qilishda nafaqat davlat budjetini to'ldirish balki soliq to'lovchilar gardaniga tushadigan soliq yukini kamaytirish va teng taqsimlash hamda tadbirkorlik subyektlari uchun teng raqobat muhitini yaratishni ta'minlash ham o'ta muhim hisoblanadi chunki tadbirkorlik subyektlariga soliq yukini teng taqsimlanishi bu tadbirkorlik subyektlari rivojlanishi va yillik aylanmasini ko'paytirishga imkon yaratsa teng raqobat muhiti sohaning bir xilda rivojlanishi va bankrot bo'lish xavfi kamayishiga olib keladi.

Bilamizki dunyo tajribasidan ma'lumki yirik investorlarning barchasi o'z kapitallarini xavfsiz va barqaror rivojlanadigan davlatlarga kiritishga harakat qiladi agarda soliq ma'murchiligi mexanizmi qaysi davlatlarda to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa ushbu davlatda biznes muhiti barqaror rivojlanishini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagilarga asoslanib shuni aytishimiz mumkinki soliq ma'murchiligi mexanizmini to'g'ri yo'lga qo'yish nafaqat davlat budjeti uchun balki biznes muhiti rivoji uchun ham juda ahamiyatlidir shu sababli soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish va mamlakatimizda raqobat bardosh hamda biznes muhitini joriy etishga yorda beradigan ba'zi takliflar:

Birinchidan: Respublika bo'yicha beriladigan imtiyozlarni soliq to'lovchilarga barqarorlik reytingi darajasidan kelib chiqqan holda berish tartibini joriy etish.

Ikkinchidan: Barqarorlik reyting darajasini jismoniy shaxslar o'rtasida ham joriy etish orqali (mol-mulk va yer solig'i) soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga erishish.

Adabiyotlar/ Литература/ Reference:

1. Carlos Silvani and Katherine Baer (1997). Designing a Tax Administration Reform Strategy: Experiences and Guidelines, IMF –. 36 pages.
2. Pogorleskiy va Keshnerlarni (2020) [www. wordlyknowledge.uz](http://www.wordlyknowledge.uz).

3. Edidiong Bassey, Emer Mulligan, Adegboyega Ojo. (2022) A conceptual framework for digital tax administration - A systematic review. // Government Information Quarterly, Volume 39, Issue 4, October. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0740624X22000909>.
4. M.Mishustin (2019) Butunjahon axborot texnologiyalari kongressida (WCIT) so‘zlagan nutqida.
5. Ключишева В.Г., Ключишев Д.А., (2016), Предпринимательство и его функции в современной рыночной экономике // В сборнике: Актуальные проблемы исследования региональных рынков Сборник статей Всероссийской нау.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi “Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4389-son qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik sub’ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5490-son Farmoni
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi “Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 1-son qarori.
9. Интернет сайтлари: www.lex.uz, www.norma.uz, www.soliq.uz.